

## TIBBIYOTDA TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH

*Maxmutova S.E., Abdurazzoqov J.T.*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** So'ngi yillarda davlatimizni rivojlantirishdagi qilinayotgan islohatlar, tibbiyotni raqamlashtirishdagi yutuq va kamchiliklar.

**Kalit so'zlar:** strategiya, axborot, raqamlashtirish, tibbiyot, "IT-Med", Sog'liqni saqlash, onlayn.

Davlatimiz rahbari tomonidan tashkil etilgan strategiyadan so'ng so'nggi yillarda mamlakatimiz tibbiyot sohasi beqiyos o'zgarishlarga yuz tutgani hammamizga ma'lum. Bu holatda aynan raqamlashtirish, ya'ni teletibbiyotni joriy etishda qator yangiliklarga qo'l urildi. Jumladan, Surxondaryoda ham tibbiyot muassasalari xorijning eng ilg'or, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanayotgani bemorlarning o'z dardiga shifo topishi uchun qulay muhit, keng imkoniyat yaratayotgani bizni quvontiradi. Endilkda bizning olis hudularda ham murakkab turdagi yurak jarrohlik operatsiyalari va buyrak transplantatsiyasini, viloyatdagi markazlarida amalga oshiriladi. Bemorlar kata tajribaga ega soha xodimlarining endilikda viloyatimizning o'zida, yaratayotgan imkoniyatlardan foydalanib davolanish imkoniyatiga ega bo'lishayotgani ko'zga tashlanmoqda. Misol uchun, Jarqo'rg'on tumanida yurak, qon-tomir kasalliklarini samarali davolashda tuman tibbiyot birlashmasi va viloyat kardiologiya markazi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yaxshi natijalar bermoqda. Bugun shu turdagi kasallik bilan shifoxonaga kelgan bemorlarning EKG nusxalari to'g'ridan to'g'ri viloyat kardiologiya markaziga yuborilmoqda. Bu yerda tajribali shifokorlar uni zudlik bilan tahlil qilib, tegishli tavsiyalarni bermoqda. Oqibatda og'ir ahvoldagi bemorlarga o'z vaqtida tez, sifatli tibbiy yordam ko'rsatilib, shu kasallik bilan bog'liq o'lim holatlari kamaytirilishiga erishilmoqda.

Hozirda Tibbiyotni raqamlashtirishga e'tibor katta. Buni - qisqa qilib aytganda tibbiy soha xodimlari uchun bir rasmiylashtirish, ro'yhat qilish shu kabi qog'ozbozlikdan qutilish, oz muddat, kuchli malaka va qulay sharoitlar ichida yaxshi daromatga ega bo'lish imkonini berdi. Aholi uchun esa bir qancha qulayliklarni jumladan, markaziy poliklinikalarda bo'ladigan soatlab navbatlar, tekshiruvlarda bo'ladigan taxlil natijalarni qog'ozbozliklardan qutilish va raqamlashtirish orqali mobil ilovalar, turli dasturlar orqali oz bo'lsada yengillashtirishga hissa qo'shmoqda. E'tibor beradigan bo'lsak, oxirgi 2 yil ichida raqamlashtirish, suniy intellekt hamda dasturlash sohaslariga bo'lgan e'tibor anchagina oshdi. Quvonarli tarafi shundaki, biz axborot asrida yashab, bir qancha qulayliklarga ega bo'ldik.

Bizga ma'lumki, Prezidentimizning 2021-yil 23-fevraldagi "Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan vazirlik muassisligida "IT-Med" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilib, u "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etishga mas'ul etib belgilangan edi.

Afsuski vaqt o'tishi bilan bu yo'nalishdagi ishlar yetarli darajada tashkil qilinmagan hammamizni ko'nglimizni xira qiladi. Tibbiyot muassasalari faoliyatiga axborot texnologiyalari yetarli darajada yetkazib berilmadi. Buning oqibatida tibbiyotda raqamlashtirish biroz mudatga kechikdi va davlatimiz rahbari tomonidan tizim faoliyatiga doir qo'yilgan bir qator muhim vazifalar ijrosi ta'minlanmadi.

Bu ishlarga chora topish maqsadida vazirlikning Sog‘liqni saqlash tizimi infratuzilmasini rivojlantirish, ularni ekspluatatsiya qilish va transport hisobini yuritish boshqarmasi hamda Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish boshqarmasiga yangi boshliqlar tayinlandi. Ularga qisqa muddatda mazkur yo‘nalishdagi ishlarni butunlay yangicha tizim asosida yo‘lga qo‘yish vazifasi topshirildi. Davlatimiz rahbari tomonidan qilinayotgan bu ishlar tibbiyot sohasiga yanada inovatsiya kiritish lozimligini ta’kidlamogda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlatimiz rahbari tizimdagi oldingi xatolarni takrorlamslik uchun, **23 fevral kuni «Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror imzolandi.**

Bu qarorni tahlili haqida biroz to‘xtaladigan bo‘lsak:

- sog‘liqni saqlash tizimi va tashkilotlaridagi jarayonlarni optimallashtirish, ratsionallashtirish, standartlashtirish va avtomatlashtirish;
- sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshiriladigan loyihalarning texnik-iqtisodiy parametrlari, konsepsiyalari hamda boshqa loyiha va loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish;
- tibbiyot va farmatsevtika sohasida axborot texnologiyasi va kommunikatsiyalari siyosati va standartlarini, shuningdek sog‘liqni saqlashning axborot tizimi yagona platformasini (keyingi o‘rinlarda – Yagona platforma) joriy etish;
- «Elektron sog‘liqni saqlash» axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish va kuzatib borish, shuningdek ularning boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini ta’minlash;
- sog‘liqni saqlash tizimida biznes jarayon va IT-reinjiniringini rivojlantirish va ushbu yo‘nalishda xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etish;
- investorlar, biznes hamkorlar va outsorsing xizmatlarini jalb qilish. Qisqa qilib aytganda, tibbiy ta’limni raqamlashtirish borasida qilingan ishlar amalga oshirilsa, biz qanday yutuqlarga erishamizu qanday muammolarimiz hal boladi?
- Birinchi navbatda poliklinikadagi keraksiz va xodimlarni shuncha yillardan beri ezib kelayotgan qog‘ozbozlikdan qutilamiz. Insonlar biror ehtiyoj bilan boshqa davlat shifoxonalari davolanish maqsadida borsa, shunchaki passport ID si orqali hamma ma’lumotlarni toppish imkoniyatiga ham ega boladi (Tibbiy sug‘urta). Agar bu sohada qilingan ishlar jadallashib ketadigan bo‘lsa hattoki onlayn xizmat ko‘rsatish darajasiga ham yetishishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qarorlardan so‘ng, davlatimizning qator viloyatlarida bir qancha ishlar boshlab yuborildi. Kelgusi yillarda viloyat shifoxonalari va davlatimiz poytaxti Toshkent shahrida ham bunday yangiliklar bizni xursand qilishiga ishonch bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://uza.uz/oz/post/ozbekiston-2030-strategiyasi-tibbiyotni-soglom-hayot-garovi\\_526920](https://uza.uz/oz/post/ozbekiston-2030-strategiyasi-tibbiyotni-soglom-hayot-garovi_526920)
2. “Xalq ovozi” gazetasi